



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

28-
mart
2022-yil
Dushanba

№3 (7)

«O'zbekiston tibbiyoti — inson qadri uchun»

Xalqaro forumlar saroyida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida «Tibbiyotdagi islohotlar - inson qadri uchun» mavzusida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Mamlakatimiz rahbarining nutqi nafaqat tibbiyot xodimlari, balki o'qituvchilar, talabalar tomonidan ham qizg'in kutib olindi. Bugungi kunda Farg'ona jamoat tibbiyot institutida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va talabalar mazkur tarixiy nutq haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqda.



MALAKALI KADRLAR SOHADAGI YUTUQLARNI TA'MINLAYDI

Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuv har bir tibbiyot xodimi dilida muhrlanib qoldi.

Bugungi kunda respublikamiz tibbiyot muassasalarida 12 mingga yaqin malakali mutaxassislar yetishmaydi. Ayniqsa, viloyatimizda shifokorlarga ehtiyoj ancha yuqori. Shuning uchun 2022/2023 o'quv yilidan tibbiyot oliygohlariga davlat grantlari asosida qabul kvotalari hududlarda shifokorlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqib, maqsadli oshirib boriladi. Ftiziatriya, gematologiya, nefrologiya, pulmonologiya, psixiatriya, shoshilinch tibbiy yordam, laboratoriya ishi, yuqumli kasalliklar kabi 15 turdagi mutaxassislik

bo'yicha magistraturaga davlat grantlari to'rt barobar oshirilishi biz uchun yangilik bo'ldi.

Bundan tashqari, tibbiyot oliygohlarining magistratura bosqichida va bakalavriatning 5-, 6-kurslarida o'qiyotgan talabalar yo'llanma asosida birlamchi va tez yordam tizimida shifokor bo'lib ishlashi mumkin. Ular ham ish haqi oladi hamda ta'limni amaliyot bilan birga olib borish imkoniga ega bo'ladi.

Munira QODIROVA,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori



TARAQQIYOT VA YUKSALISHGA FAQAT ILM, TA'LIM VA TARBIYA VA KITOB ORQALI ERISHISH MUMKIN

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqini televideniye orqali katta hayajon bilan tingladik.

Prezidentimiz ochiq muloqotida davolashdan ko'ra, ko'proq kasallikni oldini olishga urg'u berdi. Vertikal boshqaruvdan bevosita gorizontal keng qamrovli yondashuvga asos solinganiga guvoh bo'ldim.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining davolash fakulteti davolash ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasiman. Ammo, shuni ochiq-oydin aytishim mumkinki, shijoatli, yuksak maqsadlarni ko'zlagan,

serg'ayrat, barcha sohani birdek rivojlanishi uchun kurashadigan yurtboshimizga yanada mehrim ortdi.

Quyidagi so'zlarga e'tibor bering-a, taraqqiyot va yuksalishga faqat ilm, faqat ta'lim va tarbiya, faqat kitob orqali erishish mumkin. Bu fikrlar Prezidentimizni naqadar dono va kelajakni ko'ra biladigan ulug' inson, donishmand rahbar ekanligidan dalolatdir.

Islomjon JO'RAYEV.



PREZIDENT MULOQOTI TALABALARGA KUCH-G'AYRAT VA SHIJOAT BAG'ISHLADI

Davlatimiz rahbarining shifokorlar bilan muloqotini internet orqali onlayn kuzatdim.

Amaliyot davrida yo'nalishini o'zgartirishga qaror qilgan talabalarga o'qishni boshqa turdosh mutaxassisliklar bo'yicha davom ettirishga ruxsat berilishi, shu bilan birga, soha uchun ilg'or meditsinani chuqur tushunadigan, axborot texnologiyalari va chet tillarini yaxshi biladigan, boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgan zamonaviy tibbiyot menejerlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi ayni muddao bo'ldi.

Qolaversa, bugungi kunda oliygohimizda xalqaro darajadagi talabalar shifokorlar bilan bemalol bellasha oladi. Zamonaviy tibbiyot bo'yicha eng so'ngi bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikada ilk marotaba Amerika ta'lim dasturiga asoslangan o'quv kurslari joriy

etilgan. Hozirda institutning 8 nafar yosh xodimlari 165 nafar 1-kurs davolash fakulteti talabalariga AQShning USMLE ta'lim dasturi bo'yicha ingliz tilida dars bermoqda. Ushbu dastur uch bosqichdan iborat va barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar AQSHda shifokor bo'lib ishlash litsenziyasini qo'lga kiritadilar.

Shuningdek, horijdan nufuzli mutaxassislar jalb qilinib, 11 ta tibbiyot oliygohida malaka oshirish va qayta tayyorlash fakultetlari, 23 ta ixtisoslashgan markazlarda maxsus o'quv kurslari tashkil etilishi borasida belgilangan vazifalar ham sohada xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshishiga hissa qo'shadi.

Saidaziz SAIDALIYEV,
o'qituvchi.



XALQ SOG'LIGI YO'LIDA MEHNAT QILAMAN

Yurtboshimiz bilan ana shu shior ostida o'tgan ochiq muloqotni katta hayajon bilan kutib oldik.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash vakillari bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda yuqori malakali va texnologiyalar yuqori malakali va texnologiyalar talab qiladigan tibbiy xizmatlar ko'lamini kengayayotgani, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o'z faoliyatlarini boshlagani, qiyin va murakkab operatsiyalar mahalliy shifoxonalarda o'tkazilayotgani mamnuniyat

bilan ta'kidlandi. Bunday tarixiy uchrashuvni hayotimda birinchi bor ko'rib, hayajonlandim.

Men bor bilim va tajribamni xalq sog'ligi yo'lida, yosh avlodga bilim va tarbiya berish uchun ishga solaman.

Jamoliddin MAMASAIIDOV,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamshiralik ishi kafedrasini mudiri.

NAVRO'Z SAYLI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti jamoasi ham Navro'z saylida munosib ravishda ishtirok etdi. O'zbekona milliy ko'klam taomlari, ko'zni quvnatuvchi atlas-u adrasga burkangan yigit-qizlar, ayniqsa ustozlar tomonidan ijro etilgan diltorlar xalq qo'shiqlari mehmonlar qalbiga xushnudlik ulashdi. Shu bilan birga institutimizda ta'lim olayotgan Hindiston va pokistonlik talabalar va pedagoglarning milliy bayramimizda faol ishtirok etishi, saylga tashrif buyurgan mehmonlar e'tiboridan chetda qolmadi.



Keng ommaga ochiq osmon ostida havola etilgan konsert dasturi, dilbar qo'shiqlar va dilrabo raqslar barchaga xush kayfiyat va ko'tarinki ruh bag'ishladi. Hiyobon o'qituvchi va talabalar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali dasturlar, o'zbek milliy urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalovchi madaniy chiqishlar bilan yanada go'zal tusga kirdi.

Sport — sog'lom hayot garovi!



TALABALARNING BO'SH VAQTLARI MAZMUNLI TASHKIL ETILMOQDA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti davolash ishi yo'nalishi 3-bosqich talabalari guruh tyutori D.Habibullayev boshchiligida Farg'ona shahrida joylashgan "Butterfly" sport markazida bo'ldi.

Talabalar yakka va guruhlariga bo'lingan tartibda stol tennisi bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Talabalarning o'qish va dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida foydali va mazmunli vaqt o'tkazishlari uchun tashkil etilgan mazkur tadbir barchaga birdek manzur bo'ldi.

"REKTOR KUBOGI" G'OLIBLARI ANIQLANDI

Institutda tahsil olayotgan talabalar o'rtasida Navro'z bayrami munosabati bilan "Rektor kubogi" sport musobaqalariga start berilgan edi. Shu kungacha talabalar o'rtasida sportning shaxmat, stol tennisi va voleybol turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Musobaqa institut sport klubi rahbari Alisher Raimov boshchiligida olib borilib, baholandi.

Qizg'in va muvofiqlik tarzda o'tkazilgan musobaqalar talabalarga jo'shqinlik, bayram kayfiyatini ulashdi. Shu bilan birga ularning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishiga va yigit-qizlarimiz o'rtasida do'stona munosabat hamda jamoaviy tarzda ishlash ko'nikmalarini shakllanishida qo'l keldi.

Turnir yakunida esa barcha

turlar bo'yicha g'oliblar e'lon qilindi hamda diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, "Rektor kubogi" doirasida sportning mini futbol turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Bellashuv "Atletik" mini futbol majmuasida bo'lib o'tdi. Unda institut miqyosida jami 22 ta jamoa ishtirok etdi.

Mini futbol o'yinlari qizg'in va shiddatli tarzda davom etdi. Odatdagidek, kuchlilar saralanib, yarim final va final bahslariga munosiblar yetib keldi.

Yakunda musobaqaning bronza medali "Davolash ishi 2-bosqich" jamoasiga nasib qildi. G'oliblik uchun kechgan hal qiluvchi bahsda esa "Davolash ishi 4-kurs" talabalari g'olib bo'lishdi.

O'tkazilgan musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

M.DEHQONOVA.



“SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA: FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTINING MALAKALI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.

TO‘G‘RI VA SOG‘LOM OVQATLANASIZMI?



Biz kun davomida doimiy harakatda bo‘lamiz. Ishda, o‘qishda uy yumushlari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar bilan band bo‘lamiz. Bunda bizni organizmimiz harakatlanishi uchun yetarlicha energiya talab etadi. Xo‘sh, biz bu energiyani qayerdan olamiz? Albatta biz o‘z energetik ehtiyojimizni qondirish uchun uglevod, oqsil, yog‘ manbai bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan olamiz.

Lekin, bugungi kunga kelib, noto‘g‘ri ovqatlanish zamonaviy jamiyatimizning dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldi. Bunga asosiy sabab o‘z ehtiyojimizdan ko‘ra ko‘proq iste‘mol qilishimizdir. Biz ko‘pincha o‘zimizdagi ochlikni qondirish uchun me‘yordan ko‘p ovqatlanamiz va oqibatida hazm qilish a‘zolarimizni zo‘riqishiga sharoit yaratib beramiz. Xalqimizda kasallikni davolagandan ko‘ra, uni oldini olgan afzal, deb bejiz aytilmagan. Biz avvalo kasal bo‘lmaslik uchun to‘g‘ri ovqatlanish mexanizmini yo‘lga qo‘yishimiz kerak.

Kunning ertalabki qismi inson organizmi endi uyg‘ongan holatda (zo‘riqish, stresslarsiz) bo‘ladi. Inson o‘z organizmida ochlik hissini kunning boshqa paytiga nisbatan kuchliroq sezadi. Avvalo mana shu paytda 1 stakan toza suv ichilsa koni foydadir. Ertalab och qoringa ichilgan suv oshqozon hamda ichaklarimizni tozalash bilan birga qandli diabet, buyrak, o‘t pufagi va oshqozon kasalliklarini oldini oladi. Tarixdan ma‘lumki, tib olimlari ham ertalab hamda kechqurun yotishdan oldin och qoringa ichilgan 1 stakan suv ming dardga davo ekanligini o‘zlarining ilmiy kitoblari keltirib o‘tganlar.



Keling biz ertalabki ovqat ratsionini vitamin va minerallarga boy mahsulotlar bilan boshlaylik. Masalan, ertalab nonushta uchun yog‘siz mahsulotlar — salatlar, mevalar, ichimlik uchun esa meva sharbatlarini tanlaymiz. Bunday nonushta kun davomida yaxshi kayfiyatni ta‘minlaydi.



Ovqatlanayotgan paytda telefon va televizorlarga chalg‘imaslik. Inson bu vositalar bilan ovora bo‘lib, qancha ovqat yeganini his qilmay me‘yordan ortiq iste‘mol qilib qo‘yadi.



Dasturxonda ovqatlanishni to‘ymasdan oldin to‘xtatish. Chunki bosh miyaga to‘yganligi haqidagi xabar 15-20 daqiqadan so‘ng yetib boradi.

Kechki ovqat. Uni soat 18:00 gacha iste‘mol qilish kerak, ya‘ni ovqatlanish va uxlash orasidagi vaqt 3 soatdan kam bo‘lmasligi lozim. Ayniqsa, bunday rejimda ovqatlanish yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarimiz uchun juda foydalidir.

Inson tushlik vaqtida yaxshi ovqatlanishi ya‘ni kaloriyaga boy mahsulotlar iste‘mol qilishi zarur.



Ovqatlanishdan keyingi tortiladigan desert. Aslida yengil yeguliklar shirinlik va mevalar, salatlarini ovqatlanishdan oldin iste‘mol qilinsa, bu yeguliklar oshqozonni yanada og‘irroq taomga tayyorlab turadi.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI YO‘LGA QO‘YMOQCHI BO‘LGANLAR UCHUN FOYDALI TAVSIYALAR

Buning uchun “Rastoropsha” (Qushqo‘nmas) o‘simligidan tayyorlangan tabiiy damlama, o‘t, ichak yo‘llari, buyrak tosh kasalliklari uchun davo bo‘ladi, hazm qilish organlaridagi shlaklarni tozalaydi.

Qo‘llanilishi: Har kuni ertalab 1 stakan qaynoq suvga 1 ta paket rasropsha solinadi va iste‘mol qilinadi. Davolanish kursi 1 oy. Kuniga 1 mahal. Natijasini esa birinchi haftadanoq ko‘ra boshlaysiz. Zero, to‘g‘ri ovqatlanish - sog‘lom turmush garovi.

O‘.FAYZULLAYEVA,
Institut davolash fakulteti farmatsiya
yo‘nalishi talabasi.
Assistent S.SAIDOVA.



**Bekzodjon
G‘AYRATJONOV,**
Farg‘ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti, davolash ishi
fakulteti, farmatsiya
yo‘nalishi 3221-guruh
talabasi.

MOYCHECHAK BILAN DO‘STLASHING!

Moychechak damlamasi asablarni tinchlantirishda koni foyda. Ishdan so‘ng, albatta bir piyola ushbu damlamadan ichish, maroqli dam olishda juda samara beradi. Bu damlamani kattalar va bolalar ham iste‘mol qilishlari mumkin. Uyquning me‘yoriy bo‘lishi uchun moychechak, lavanda, melissaning gullari foydalidir. Bu o‘simliklardan 10 gr.dan olib aralashtiring va (200 ml) qaynoq suv soling hamda 15 daqiqadan so‘ng iste‘mol qiling. Shunda asablaringiz dam olgani va tinchlanganini his qilasiz.

Moychechak dorivor o‘simlik bo‘lsa ham iste‘mol qilinishi mumkin bo‘lmagan holatlar ham mavjud. Bu o‘simlik damlamalari ba‘zi odamlarda allergiya chiqarish xususiyatiga ega. Agar oshqozon buzilishi, yuz va tanaga toshma toshishi kabi holatlar kuzatilsa, bu holatda moychechak damlamasini ichishni to‘xtatish va shifokor bilan maslahatlashish lozim!

TOMOQ OG‘RIG‘IGA DAVO

Tomoq og‘rishi yoki shamollashning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda moychechak damlamasi bilan tomoqni chayish samarali hisoblanadi. Buning uchun quritilgan romashka gullaridan 4 osh qoshig‘ini olib, yarim litr suvga solib, 45 daqiqa davomida dam beriladi va suzib olinadi-da, og‘iz sohasi shu damlama bilan kuniga 4-5 mahal g‘ar-g‘ara qilinadi.



YOD TANQISLIGINING ORGANIZMGA SALBIY TA'SIRI

Butun Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, yod tanqisligi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar, eng ko'p uchraydigan xastaliklar qatoriga kiradi. Aholining 60 foizga yaqini yod tanqisligidan aziyat chekmoqda, 70 foizga yaqin bolalar o'zlarida yod tanqisligini his etmoqdalar. Yod — inson salomatligi uchun suv va havodek zarur mikroelement hisoblanadi. U qalqonsimon bez tomonidan ishlab chiqariladigan gormonlarning asosini tashkil etadi. Bu garmonlar organizmning o'sishi, rivojlanishi hamda tanadagi barcha a'zolarining faoliyatlarini uchun muhimdir. Yod tanada hosil bo'lmaydi.

U asosan oziq-ovqat mahsulotlari orqali qabul qilinadi. Lekin bizning tuproq va suvimizda, unda yetishtirilayotgan meva-sabzavot, don va go'sht mahsulotlarida yod miqdori juda kam bo'lib, insonning kundalik ehtiyojini qondira olmaydi. Uni yetarli miqdorda qabul qilinmasligi oqibatida yod tanqisligi holatlari yuzaga keladi.

“ Yod tanqisligi qaysi yoshda kuzatilgan bo'lsa, o'sha yoshdagi o'sish va rivojlanish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuning uchun odamning yoshi qancha kichik bo'lsa, yod tanqisligi



Yod saqlovchi
ozuqalar
(100 gr da)

Go'sht
200 MKG

Tuxum
18 MKG

Mosh
12.5 MKG

Gulkaram
15 MKG

Qizilcha
6.8 MKG

Dengiz
karami
150 MKG

Yod etishmovchiligi:
sog'lig'ingizni tiklash vaqti keldi!

Kunlik iste'mol miqdori:

- 6 yoshgacha bolalar **90 mkg**
- 6 yoshdan 12 yoshgacha bolalar **120 mkg**
- 12 yoshdan kattalar **150 mkg**
- Homiladorlik va emizish davridagi ayollar **250 mkg**

shunchalik katta xavf soladi. Odam uchun yodning uchta manbai mavjud: yer, havo va suv. Odamga yod juda kam miqdorda zarur. Kuniga atigi 100-200 mkg. Biroq bu hayot faoliyati uchun suv va havodek zarur elementdir. Butun hayot davomida odam atigi 3-5 gramm yod qabul qiladi.

O'sish va rivojlanish hisobiga homilador ayol, bola va o'smirlarda, yodga bo'lgan ehtiyoj boshqalarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Aynan ularga yod tanqisligi holatlari ko'proq kuzatilishi va turli hil asoratlari qoldirishi bilan xavfli. Yod tanqisligi kasalliklari hamma uchun ma'lum bo'lgan buqoqdan tortib, jismoniy va aqliy rivojlanishlardan orqada qolish va reproduktiv salomatlikning buzilishigacha bo'lgan keng qamrovli kasalliklarni o'z ichiga oladi. Homilador ayollarda yod

tanqisligi homilaning tushishiga, bolani o'lik hamda aqlan zaif va boshqa nuqsonlar bilan tug'ilishiga olib keladi. Yod tanqisligi mavjud onalardan tug'ilgan bolalarda aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolish holatlari, qalqonsimon bezning tug'ma yetishmovchiliklari va kretenizm kasalligi kuzatilishi mumkin. Kretenizm — yodning juda og'ir darajadagi surunkali yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan tug'ma kasallik bo'lib, u pakanalik, g'ilaylik, karlik kabi jismoniy nuqsonlar va aqliy yetishmovchilik bilan namoyon bo'ladi. Yod tanqisligi yosh bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, o'sishning sekinlashishi, turli kasalliklarga moyillik, harakatning buzilishi, atrofga nisbatan loqaydlik, injqlik, jahldorlik, yig'loqlik, yig'laganda past va

dag'al tovush chiqarish, ko'krak so'rish jarayonining sustligi, yurak xastaligi, tana suyaklarining mo'rtlanish holatlari bilan namoyon bo'ladi. Yod tanqisligi kuzatilayotgan bolalarda, ruhiy va jismoniy rivojlanishning ortda qolishi, bo'yni sekin o'sishi, ma'lumotlar qabul qilishning qiyinlashishi, xotira va fikrlash jarayonining yomonlashishi bilan namoyon bo'ladi. Bunday bola va o'smirlarning umumiy anglash faoliyatiga bo'lgan qarashlari va intilishlari susayadi.

Shu tarzda yod tanqisligi o'smirlarda kasb egallash layoqatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yod tanqisligi oqibatida jinsiy rivojlanish ham susayadi. Yod tanqisligini o'z vaqtida oldi olinmasa, keyinchalik farzandlik bo'lishda muammolar keltirib chiqarish mumkin. Jiddiy

asoratlarga olib keluvchi yod tanqisligi holatlarining oldini olish mumkin. Buning uchun, muntazam yodlangan osh tuzini iste'mol qilish zarur. Tibbiy olimlarning xulosalariga ko'ra, bir sutka davomida 5 gr. (bir choy qoshiq) tuz katta yoshdagi odam uchun yetarlidir. Yodlangan osh tuzi ko'p hollarda 1 kg. sellofan paketlarga qadoqlangan holda sotiladi. Xarid qilinayotganda uning chiqarilish va saqlanish muddatiga ahamiyat berish lozim. Yod uchuvchi xususiyatga ega. Yodlangan osh tuzini yodi uchib ketmasligi uchun uni usti yopiq idishlarda, issiqlik manbalaridan uzoqroq joyda saqlanishi lozim.

B.HAYDAROVA,
Institutning hamshiralik
ishi kafedrasida katta
o'qituvchisi.



SIL KASALLIGI QANDAY DAVOLANADI?

Silni to'g'ri davolash bu kasallikka qarshi kurashishni asosiy vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyot silni davolashda katta imkoniyatlarga ega. Bemor kasallikni dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilan shifokorga murojaat qilishi, shifokorning barcha ko'rsatmalariga rioya etishi kerak. Belgilangan dorilarning barcha dozalarini doimiy ravishda uzluksiz nazorat ostida qabul qilsagina, gigiyena qoidalariga rioya etganida tuzalib ketishi mumkin.

Bemorning gigiyena qoidalariga amal qilmasligi esa qaytalanish va ikkilamchi dori-darmonlarga chidamlilik formasiga o'tishi kuzatiladi.

Hozirda dorilarga chidamlilik formasidagi bemorlarni davolashda qisqa muddatli davolash standartlaridan foydalanilmoqda. Avvallari 20-24 oygacha bemorlar silga qarshi preparatlarni qabul qilishgan bo'lsa (8 oy davomida muskul orasiga in'ekson preparatlar ham qabul qilishgan), hozirda 9 oyda faqat tabletkalarni o'zi bilan davo kursi tugatilmogda.

Qisqa muddatli davo kursi bemorlarga ancha qulay bo'lmoqda. In'ekson preparatlar eshitish va buyrak a'zolariga nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqargan bo'lsa, tabletkalarni uzoq vaqt qabul qilish oshqozon-ichak va jigar a'zolariga salbiy ta'sir qilayotgan edi. Yuqoridagi salbiy holatlar sezilarli kamaydi. Shunday ekan sil kasalligining oldini olishga, barvaqt aniqlashga, kasallik aniqlanganda tezroq shifokor huzuriga borishga harakat qiling.

A. ESHMATOV,
viloyat 2-sonli ftiziatriya
dispanseri bo'limi mudiri.

**JAMOAT
SALOMATLIGI**

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132
raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOV
Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «PRINTUZ» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
BOSMAXONA MANZILI:
Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Mirobod ko'chasi, 41/2-uy.
Bosmaxonaga 28.03.2022 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00
Buyurtma: Adadi: 1000